



# XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## XORAZM VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI


**Izoh:** 2024-yil yanvar-sentabr holatiga ma'lumotlar dastlabki, qolgan davrlar bo'yicha yakuniy ma'lumotlar keltirilgan.



**2024-yil yanvar-sentabr**


**XORAZM VILOYATINING DOIMIY AHOLISI***2024- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar*

Xorazm viloyatida 2024- yil 1-oktabr holatiga doimiy aholi soni 2021,0 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 25,4 ming kishiga yoki 1,3 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 667,0 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,0 %), qishloq aholisi soni 1354,0 ming kishini (67,0 %) tashkil etdi.

**Doimiy aholi soni****2 021,0** *ming kishi***Tabiiy o'sish****(+) 26,7** *ming kishi***Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi****Shahar****33,0%****Qishloq****67,0%****Doimiy aholi sonining yillar bo'yicha taqsimlanishi****—** Aholi soni, ming kishi**—** Yillar bo'yicha o'sish sur'ati %

## Xorazm viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar


2024- yil yanvar-sentabr



## Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2024- yil 1- oktabr holatiga

Mehnatga layoqatli yoshdan kattalar






2024- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,1 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,5 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,4 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yanvar-sentabr oylarida doimiy aholi sonining tarkibi (ming kishi)



2024-yil yanvar-sentabr holatiga hududlar bo'yicha doimiy aholi soni va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati




**Doimiy aholi sonining taqsimlanishi**
*2024- yil 1- oktabr holatiga*

**1011,9** ming kishi

**1009,1** ming kishi

**Doimiy aholi sonining shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi**
*1- oktabr holatiga, ming kishi*

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, % da
Viloyat bo'yicha	<b>1983,7</b>	<b>2021,0</b>	<b>101,9</b>
shaharlar :			
Urganch sh.	152,4	155,1	101,8
Xiva sh.	98,3	99,6	101,3
tumanlar:			
Bog'ot	175,0	178,5	102,0
Gurlan	156,4	159,0	101,7
Qo'shko'pir	181,0	184,2	101,8
Urganch	212,3	216,9	102,2
Hazorasp	204,8	208,8	102,0
Tuproqqal'a	58,9	60,3	102,4
Xonqa	197,3	200,9	101,8
Xiva	153,6	157,1	102,3
Shovot	179,3	182,6	101,8
Yangiariq	122,4	124,5	101,7
Yangibozor	92,0	93,5	101,6

## Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi

2024- yil 1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Viloyatda 2024- yil 1- oktabr holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 334 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 6 kishiga ortgan (2023- yil 1- oktabr holatiga 1 kv.km.ga 328 kishi bo'lgan).

Shahar va tumanlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Urganch shahrida 5354 kishi, Xiva shahrida 2923 kishi, Urganch tumanida 486 kishi, Hazoraspi tumanida 464 kishi, Xonqa tumanida 464 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Tuproqqal'a tumanida 38 kishi, Yangibozor tumanida 273 kishi, Yangiariq tumanida 309 kishi, Qo'shko'pir tumanida 342 kishini tashkil etgan.

## Xorazm viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

1- oktabr holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




## QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



Shahar va tumanlar kesimida tug'ilishlar soni  
2024-yil yanvar-sentabr, kishi



2024-yil yanvar-sentabr oylarida 33580 ta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 nafar aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,3 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilga nisbatan 0,7 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 23,0 promilleni tashkil etgan).

## Vafot etganlar soni



Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)


7386

7028

7164

6838

6856



## Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni


2024-yil yanvar-sentabr, kishi

erkaklar

ayollar



## Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti, kishi




2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 6 856 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etgan.



## O‘lim (vafot etish) – tananing hayotiy faoliyatining biologik va fiziologik jarayonlarini to‘liq to‘xtashi


### Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha soni va foizi

2024- yil yanvar-sentabr, kishi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining 49,4 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,9 %i – o‘simtalardan, 5,4 %i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, 4,8 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,6 %i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, 1,0 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, 23,9 %i boshqa kasalliklaridan yuz bergan.

## OAYD ETILGAN NIHOHLAR



### Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti, birlik

Urganch sh.	706	6,1‰
Xiva sh.	493	6,6‰
Bog'ot	946	7,1‰
Gurlan	873	7,4‰
Qo'shko'pir	867	6,3‰
Urganch	1104	6,9‰
Hazorasp	1122	7,2‰
Tuproqqal'a	309	6,9‰
Xonqa	1132	7,6‰
Xiva	764	6,5‰
Shovot	859	6,3‰
Yangiariq	593	6,4‰
Yangibozor	491	7,1‰

### Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti 2024- yil yanvar-sentabr, birlik

shahar	qishloq
706	-
493	-
147	799
400	473
227	640
142	962
157	965
153	156
361	771
49	715
239	620
148	445
88	403

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 10259 ta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 6,8 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 7,0 promille bo'lgan).

## NIKOHDAN AJRALISHLAR



Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Hududlar kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti, birlik



### Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024-yil yanvar-sentabr, birlik



2024-yil yanvar-sentabr oylarida 1447 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etgan.

## AHOLI MIGRATSIYASI

*(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)*

2024- yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 8 208 kishini tashkil etdi.

Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 9 545 kishini, migratsiya saldosi minus 1337 kishini tashkil etdi. (2023- yil yanvar-sentabr oylarida minus 1493 kishini tashkil etgan).

### Viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

*kishi*


	2023 - yil yanvar- sentabr			2024- yil yanvar- sentabr		
	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko'chib kelganlar	Ko'chib ketganlar	Migratsiya saldosi
<b>Viloyat bo'yicha:</b>	5901	7394	-1493	8208	9545	-1337
<i>shaharlar:</i>						
<b>Urganch sh.</b>	1631	1884	-253	2204	2331	-127
<b>Xiva sh.</b>	381	440	-59	430	780	-350
<i>tumanlar:</i>						
<b>Bog'ot</b>	144	262	-118	163	281	-118
<b>Gurlan</b>	129	366	-237	227	496	-269
<b>Qo'shko'pir</b>	188	404	-216	307	567	-260
<b>Urganch</b>	1587	1165	422	2182	1454	728
<b>Hazorasp</b>	213	718	-505	338	732	-394
<b>Tuproqqal'a</b>	504	281	223	644	536	108
<b>Xonqa</b>	153	454	-301	221	581	-360
<b>Xiva</b>	363	508	-145	750	624	126
<b>Shovot</b>	190	413	-223	289	498	-209
<b>Yangiariq</b>	234	272	-38	231	337	-106
<b>Yangibozor</b>	184	227	-43	222	328	-106

## KO'CHIB KELGANLAR



Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




### Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-sentabr, kishi



### Ko'chib kelganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 8 208 ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 5,5 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,5 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 4,0 promille bo'lgan).


## KO'CHIB KETGANLAR

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti, kishi



### Ko'chib ketganlar soni va koeffitsiyenti

2024-yil yanvar-sentabr kishi



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida 9545 ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilga nisbatan 1,3 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida 5,0 promille bo'lgan).

## Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

**Doimiy aholi** – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Doimiy aholi sonini baholash** – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

**Tug'ilish** – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Nikoh** – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti** – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)** – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti** – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.



**Ko‘chib ketganlar soni** – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

**Aholining migratsion o‘sishi (farqi)** – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

**Demografiya, mehnat va gender  
statistikasi bo‘limi**

*Tel: 62 224-65-08*